

COLLECTION

Innovation, integration and modern
problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and
practice

www.d-pressa.com

31
MARCH



Jizzakh, Uzbekistan

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF
THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN
NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENCE NETWORKS

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young
researchers and students: theory and practice collection of materials of the
international scientific and practical conference on the topic

(March 31, 2026)

Jizzakh-2026

Innovation, integration and modern problems in the scientific activities of young researchers and students: theory and practice – Jizzakh: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, March 31, 2026, 990 pp.

Editors in charge: Ass.prof. Soy M.P.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

IQTISODIYOT SOHASIDA MOLIYAVIY TAHLILNING AHAMIYATI

Madina Eshboyeva

O'zMU Jf iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs 233-guruh talabasi

Email: Madinaeshboyeva885@gmail.com

Bo'ltakov Sardor

O'zMU Jf "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Moliyaviy tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar, tarmoq va davlat darajasidagi iqtisodiy qarorlarni asoslashda muhim ilmiy-amaliy vosita hisoblanadi. U moliyaviy holatni baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash, investitsiya loyihalarini saralash, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada moliyaviy tahlilning iqtisodiyotdagi o'rnini, uning asosiy yo'nalishlari, ROI, ROA, ROE, likvidlik va leverage kabi ko'rsatkichlarning mazmuni, shuningdek O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy tahlilning amaliy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari moliyaviy tahlil korxonalar boshqaruvi, investitsion faoliyat va makroiqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy tahlil, iqtisodiy rivojlanish, rentabellik, ROI, ROA, ROE, likvidlik, leverage, investitsiya samaradorligi, iqtisodiy barqarorlik

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday iqtisodiy subyekt faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyaviy axborotni qanchalik chuqur tahlil qila olishiga bog'liq bo'ladi. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda korxonalar yoki tashkilotning shunchaki ishlab chiqarish hajmini oshirishi yetarli emas, balki uning moliyaviy jihatdan qanchalik sog'lom ekani, mavjud resurslardan qay darajada samarali foydalanayotgani, qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish imkoniyati, investitsiya jozibadorligi va ichki barqarorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy tahlil iqtisodiyotning nafaqat alohida korxonalar faoliyatida, balki butun iqtisodiy tizim samaradorligini ta'minlashda asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Moliyaviy tahlil yordamida daromadlar, xarajatlar, foyda, pul oqimlari, aktiv va passivlar tarkibi, to'lov qobiliyati hamda kapital tuzilmasi o'rganiladi va bu ma'lumotlar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi ⁷⁵. Iqtisodiyot nazariyasida moliyaviy tahlil korxonalar moliyaviy holatini baholash, kelgusidagi moliyaviy imkoniyatlarini prognoz qilish va resurslardan foydalanish darajasini aniqlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon, odatda, balans, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari hisobotlari va turli koeffitsiyentlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Aynan shu jihati bilan moliyaviy tahlil oddiy hisob-kitob emas, balki iqtisodiy boshqaruvning ilmiy asosidir. Masalan, korxonalar foyda olayotgan bo'lishi mumkin, lekin uning pul oqimlari zaif bo'lsa yoki qarz yuklamasi ortib ketgan bo'lsa, tashqi tomondan ijobiy ko'ringan natija uzoq muddatda xavf tug'diradi. Demak, moliyaviy tahlil faqat

⁷⁵ Qosimov B. Moliyaviy menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2015.

natijani qayd etmaydi, balki o'sha natijaning sifati, barqarorligi va davomiyligini ham ochib beradi. Shu sababli u iqtisodiyotning mikro darajasida korxonalar boshqaruvi uchun, makro darajasida esa davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirish uchun zarur vositadir ⁷⁶. Xususan, bozor iqtisodiyoti chuqurlashgan sari raqobat kuchayadi, kapital qimmatlasha boradi, risklar xilma-xillashadi va bunday sharoitda "to'g'ri tahlil qilingan moliyaviy ma'lumot" strategik ustunlikka aylanadi. Korxonalar rahbariyati ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi mahsulot turini joriy etish, kredit olish, xarajatlarni optimallashtirish yoki aktivlarni qayta taqsimlash bo'yicha qaror qabul qilishidan oldin moliyaviy tahlilga tayanadi. Investor esa kapitalni joylashtirishdan oldin aynan moliyaviy ko'rsatkichlarni o'rganadi. Kreditorlar qarz ajratishda qarz oluvchining likvidligi va moliyaviy barqarorligini tekshiradi. Davlat esa soliq siyosati, byudjet rejalashtirish va tarmoqni qo'llab-quvvatlash choralarini ishlab chiqishda moliyaviy natijalarni umumlashtirilgan holda baholaydi. Demak, moliyaviy tahlil iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarini bog'lab turuvchi universal tahliliy mexanizm sifatida amal qiladi ⁷⁷.

Moliyaviy tahlilning iqtisodiyotdagi ahamiyati uning turli ko'rsatkichlar orqali korxonalar faoliyatining haqiqiy holatini ochib bera olishida ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Rentabellik ko'rsatkichlari ichida ROI, ya'ni investitsiya rentabelligi alohida o'rin tutadi, chunki u sarflangan kapitalning qay darajada samara berayotganini ifodalaydi va investitsiya loyihalarini taqqoslashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Agar biror loyiha bo'yicha ROI yuqori bo'lsa, bu o'sha loyihaga yo'naltirilgan mablag' iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lganini anglatadi. Biroq moliyaviy tahlil faqat bitta ko'rsatkich bilan cheklanmaydi, chunki investitsiya samaradorligi umumiy iqtisodiy holatning faqat bir qirrasini aks ettiradi. Shu bois ROA, ya'ni aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi korxonaning barcha aktivlari yordamida qancha foyda yaratayotganini ko'rsatadi va boshqaruv samaradorligini baholashga xizmat qiladi. ROE esa o'z kapitali rentabelligini ifodalaydi hamda aksiyadorlar yoki mulkdorlar nuqtai nazaridan kapitalning qaytuvchanligini ko'rsatadi ⁷⁸. Agar korxonada ROE yuqori, lekin ROA past bo'lsa, bu ko'pincha qarz ulushining yuqoriligi hisobiga olingan natija bo'lishi mumkin va bunday vaziyat tashqi tomondan jozibali ko'rinsa-da, ichki moliyaviy xavfni kuchaytiradi. Shuning uchun leverage, ya'ni qarz mablag'larining kapital tuzilmasidagi ulushi moliyaviy tahlilda muhim o'rin egallaydi. Leverage ko'rsatkichi yuqori bo'lgan korxonalar iqtisodiy o'sish davrida tezroq foyda ko'rishi mumkin, ammo inqiroz yoki bozordagi pasayish sharoitida bunday tuzilma sezilarli xavf tug'diradi. Shu jihatdan qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbatni to'g'ri boshqarish moliyaviy tahlilning markaziy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, likvidlik ko'rsatkichlari ham korxonalar moliyaviy sog'lomligining muhim mezonidir. Joriy likvidlik, tezkor likvidlik va mutlaq likvidlik kabi koeffitsiyentlar orqali korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyati baholanadi. Amaliyotda ko'pincha foydali ishlayotgan, biroq pul oqimlari noto'g'ri boshqarilgani sababli likvidlik inqiroziga

⁷⁶ Abdulkarimov I., Xidirov N. Korxonalar moliyaviy tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

⁷⁷ Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

⁷⁸ Brigham E., Houston J. Fundamentals of Financial Management. – Cengage Learning, 2019.

uchragan korxonalar uchraydi. Shuning uchun moliyaviy tahlil foyda ko'rsatkichlari bilan birga pul oqimlarini ham birgalikda o'rganadi. Bu esa boshqaruvga "qog'ozdagi foyda" bilan "real naqd oqim" o'rtasidagi tafovutni ko'rish imkonini beradi. Moliyaviy tahlil investitsion qarorlar qabul qilishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki investitsiya loyihalarini tanlashda NPV, IRR, payback period kabi usullar loyiha samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi⁷⁹. Ayniqsa, resurslar cheklangan sharoitda moliyaviy tahlil kapitalni eng samarali loyihalarga yo'naltirishga yordam beradi va shu orqali iqtisodiy o'sishning sifati oshadi. Bu holat nafaqat xususiy biznes, balki davlat investitsiya dasturlarida ham muhimdir, chunki infratuzilma, energetika, sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga yo'naltirilgan mablag'larning samaradorligi moliyaviy tahlil orqali baholanmasa, resurslarning noto'g'ri taqsimlanish xavfi kuchayadi. Shu ma'noda moliyaviy tahlil iqtisodiyotda samaradorlik, shaffoflik va javobgarlikni kuchaytiruvchi vositadir.

Moliyaviy tahlilning ahamiyati O'zbekiston iqtisodiyoti misolida ham yaqqol ko'rinadi, chunki mamlakatimizda bozor tamoyillariga asoslangan islohotlar chuqurlashgani sari korxonalarining moliyaviy mustaqilligi, investitsion jozibadorligi va boshqaruv sifati masalalari oldingi o'ringa chiqmoqda. So'nggi yillarda sanoat korxonalari, tijorat banklari, eksporyor subyektlar va xizmat ko'rsatish sohasi tashkilotlarida moliyaviy tahlil elementlaridan keng foydalanish kuzatilmoqda. Xususan, kreditlash jarayonida banklar qarz oluvchilarning moliyaviy hisobotlarini chuqur tahlil qilib, ularning likvidligi, qarz yuklamasi, pul oqimlari va rentabellik darajasini baholamoqda, bu esa kredit risklarini kamaytirishga xizmat qilmoqda⁸⁰. Shu bilan birga, korxonalar faoliyatida xarajatlarni boshqarish, foyda marjasini oshirish, debitor va kreditor qarzдорlikni muvozanatlashtirish hamda aylanma mablag'lardan samarali foydalanish masalalari ham moliyaviy tahlilga tayanadi. Mamlakat miqyosida esa davlat byudjeti ijrosi, soliq tushumlari, subsidiyalar samaradorligi, davlat qarzi dinamikasi, tarmoqlar kesimida rentabellik va investitsion faollikni baholashda moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish iqtisodiy siyosat sifatini oshiradi⁸¹. Globalizatsiya sharoitida bu masala yanada dolzarblashadi, chunki xalqaro kapital bozorlari bilan integratsiya, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va eksport salohiyatini oshirish uchun milliy iqtisodiyot subyektlari xalqaro standartlarga mos moliyaviy tahlil tizimiga ega bo'lishi kerak. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy tahlil rivojlangan mamlakatlarda nafaqat hisobotlarni sharhlash vositasi, balki strategik boshqaruv, risk-menejment, investitsion rejalashtirish va korporativ boshqaruvning asosiy qismi sifatida qo'llanadi⁸². O'zbekiston sharoitida ham aynan shu yo'nalishda harakat qilish, ya'ni moliyaviy tahlilni buxgalteriya hisobotining oddiy ilovasi sifatida emas, balki boshqaruvning markaziy instrumenti sifatida shakllantirish muhimdir. Bu borada oliy ta'limda moliyaviy tahlil metodologiyasini chuqur o'qitish, korxonalarda tahliliy kompetensiyalarni kuchaytirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan

⁷⁹ Ross S., Westerfield R., Jordan B. Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill Education, 2018.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2022.

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha tahliliy materiallar. – Toshkent, 2023.

⁸² Higgins R. Analysis for Financial Management. – New York: McGraw-Hill, 2021.

uyg'un ishlash, raqamli analitika va boshqaruv hisobi tizimlarini joriy etish zarur. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy tahlil iqtisodiyot sohasida resurslardan oqilona foydalanish, foyda va barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni topish, investitsion qarorlarning sifatini oshirish hamda makro va mikro darajadagi iqtisodiy xavflarni kamaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. U korxonaga ichki boshqaruvidan tortib davlat iqtisodiy siyosatigacha bo'lgan butun tizim uchun zarur bo'lgan tahliliy tayanchni yaratadi. Shuning uchun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli o'sishga erishish yo'lida moliyaviy tahlilni rivojlantirish, uning usullarini takomillashtirish va amaliy qo'llanish doirasini kengaytirish muhim ilmiy hamda amaliy vazifa bo'lib qoladi ⁸³.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Moliyaviy menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2015.
2. Abdulkarimov I., Xidirov N. Korxonaga moliyaviy tahlili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Vahobov A., Ibrohimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
4. Brigham E., Houston J. Fundamentals of Financial Management. – Cengage Learning, 2019.
5. Ross S., Westerfield R., Jordan B. Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill Education, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimi faoliyati bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2022.
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha tahliliy materiallar. – Toshkent, 2023.
8. Saitov S. et al. ZAMONAVIY FILOLOGIYA FANLARIDAGI DOLZARB MASALALAR //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 419-422.
9. Eshboyeva M., Eshboyev T., Saitov S. GREEN ECONOMY AS THE FOUNDATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: GLOBAL PERSPECTIVES AND NATIONAL STRATEGIES //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 235-238.
10. Saitov S. et al. O 'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATNI RAG 'BATLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 728-730.
11. Saitov S. et al. SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2025. – Т. 3. – №. 33. – С. 731-733.
12. Eshboyeva M., Eshboyev T., Saitov S. GREEN ACCOUNTING IN UZBEKISTAN: SUSTAINABILITY AND INTERNATIONAL FINANCIAL

⁸³ Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2020.

- REPORTING STANDARDS //Scientific journals" D-PRESS SERVICES". – 2025. – Т. 1. – №. 7. – С. 88-91.
13. Saitov S., Nuraliyeva S. BOZOR IQTISODIYOTIDA PSIXOLOGIK BOSHQARUV SHAKLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 447-452.
14. Axrorov E., Saitov S. O‘ZBEKISTONDA ISHSIZLIK DARAJASINI KAMAYTIRISH VA YANGI ISH O‘RINLARINI YARATISH //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 136-140.
15. Nasrullayeva S., Saitov S. RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASRIDA SUN‘IY INTELLEKTNING JAMIYAT RIVOJI, INSON FAOLIYATI VA IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARDAGI O‘RNI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 105-108.
16. Saitov S. Barqaror Iqtisodiyotni Ta'minlashda Soliq Siyosatining Samaradorligi //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 12. – С. 668436.
17. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2020.
18. Bo‘ltakov S. O‘ZBEKISTONDA BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ISTIQBOLLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 565-567.
19. Bo‘ltakov S. BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI VAHOLASH MEZONLARI //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 366-371.
20. Bo'ltakov S. et al. TURIZM SOHASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI ANAMIYATI //Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 60-62.
21. Bo‘ltakov S. Innovatsion Usulda Baliq Yetishtirishning Iqtisodiy Samaradorligini Oshirish Yo‘llari (Sirdaryo Tumani Misolida) //Green Economy and Development. – Т. 3. – №. 9. – С. 666837.
22. Бакиева Р. Б., Цой М. П. Инвестиции в человеческий капитал //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2015. – Т. 1. – №. 13. – С. 159-161.
23. Цой М., Зульфакарова Л., Рашидов А. «ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА» И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 144-149.
24. Зульфакарова Л., Левченко И., Цой М. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО РЕСПУБЛИКИ ТАТАРСТАН И КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ В 2022–2025 ГГ.: ДИНАМИКА, СТРУКТУРА И ПЕРСПЕКТИВЫ //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 38-41.
25. Цой М., Зульфакарова Л., Наджмиддинов Д. РОЛЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ //Scientific practical conference. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 85-89.